

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
Adabiy asardagi nuring xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
<b>A.B.Kosimova</b>	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabbilar.....	469
<b>TILSHUNOSLIK</b>	
<b>M.Y.Mamajonov</b>	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni .....	473
<b>R.M.Shukurov, G.S.Jo'rabyeva</b>	
Farg'ona viloyati toponomilarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida .....	483
<b>F.X.Qosimova</b>	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
<b>A.A.Ergashev</b>	
Etnotoponimlar tadqiqi .....	496
<b>H.Sh.Radjabova</b>	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
<b>S.A.Jabborova</b>	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
<b>Sh.R.Amonturdiyeva</b>	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari .....	511
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
<b>X.F.Xaydarova</b>	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
<b>I.A.Egamberdiyeva</b>	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi .....	527
<b>D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva</b>	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'Ichov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
<b>Z.Sh.Ashurova</b>	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini .....	535
<b>I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova</b>	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida .....	545
<b>V.A.Vositov</b>	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida .....	550
<b>M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov</b>	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi .....	557
<b>D.I.Khodjaeva</b>	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari .....	562
<b>O.M.Yusupova</b>	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili .....	567
<b>M.V.Nasridinov</b>	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages .....	577
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics .....	582
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili .....	586
<b>M.Y.Madiyeva</b>	



УО'К: 821.512.133.09 -1

**ADABIY ASARDAGI NURNING XUSUSIYATLARI VA FUNKSIYALARI (O'ZBEK LIRIKASI NAMUNDA)****СВОЙСТВА И ФУНКЦИИ СВЕТА В ЛИТЕРАТУРНОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ  
(УЗБЕКСКАЯ ЛИРИКА ОБРАЗЕЦ)****PROPERTIES AND FUNCTIONS OF LIGHT IN A LITERARY WORK (UZBEK LYRICS SAMPLE)****Abduraxmonov Abiljon Abdusamatovich** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

Maqolada nuring adabiy asarda qo'llanish xususiyatlari va funksiyalari tadqiq etiladi. Bunda nurga fan sohalaridagi munosabatlar keltirilgan. Nurning falsafa hamda tsviriy san'at uchun kategoriya sifatida muhimligi, adabiyot uchun esa badiiy royaning ifoda vositasi ekanligi aytildi. Nur qanday shakl va vazifada bo'lmasin badiiy matnga to'g'ridan-to'g'ri kirib kelmaligi, u dastlab ijodkor nurni tafakkuri orqali ichki olamiga kiritilishi va qabul qiluvchi(o'quvchi)ga yetib borgunga qadar esa uch bor transformatsiyaga uchrashi yotib beriladi. Nurning badiylashish jarayoni 4 bosqichni bosib o'tishi 1. Moddiy hodisadan ma'naviy hodisaga aylanishi (yoki aksincha). 2. Ijodiy konsepsiya mos holat(shakl)ga kirishi. 3. Ijodiy konsepsiyanı ifodalashda vazifa yuklatilishi. 4. Badiiy asarda mavqe egallashi tarzida sanab, izohlanadi. Nurning tabiiy xususiyatlari ma'naviy xususiyatlarga ko'chgani holda badiiy adabiyotda aks etgan bo'lsa-da, insoniyat tamadduni davomida uning ma'naviy xususiyatlarining ustuvor qo'llanishi yuz berishiga tavsif beriladi. O'zbek lirkasida nuring badiiy-g'oyaviy transformatsiyasi namoyon bo'lishi uch davrda bo'lib tavsiflanadi. 1-davr Atoiy, Navoiy, Furqat she'rlari, 2-davr U.Nosir, Botu, Cho'lon she'rlari, 3-davr A.Oripov, Sh. Rahmon she'ldri misolida ko'rsatib beriladi. Real hayotga in'ikos tasvirlanayotgan badiiy makonga badiiy talqinning moslashishida nuring moddiy va ma'naviy shakldagi ko'rinishlari bilan real hayotni falsafiy-ramziy jihatlarda yorqinroq namoyon qilishdagi ahamiyati yanada oshganligi isbotlanadi.

**Аннотация**

В статье исследуются особенности и функции использования света в литературном произведении. В нем представлены отношения в областях науки к свету. Говорят, что свет важен как категория для философии, так и для изобразительного искусства, а для литературы он является средством выражения художественной идеи. В основе лежит то, что свет не проникает непосредственно в художественный текст, какой бы формой и функцией он ни был, он сначала внедряется во внутренний мир через созерцание создателя света и трижды претерпевает трансформацию, прежде чем достигнет получателя(читателя). Процесс художественного оформления света проходит 4 стадии 1. Превращение из материального явления в духовное (или наоборот). 2. Вступление в состояние(форму), соответствующее творческому замыслу. 3. Постановка задачи при выражении творческого замысла. 4. Перечисление и интерпретация в том виде, в каком они занимают позицию в художественном произведении. Хотя природные свойства света отражены в художественной литературе как переходящие в духовные свойства, в ходе человеческой трапезы дается описание того, как происходит первоочередное применение его духовных свойств. Проявление художественно-идейной трансформации света в узбекской лирике характеризуется тремя периодами. 1-й период стихи Атая, Навои, Фурката, 2-й период У.Стихи Насера, боту, чолпони, 3-й период А.Арипов, Ш. Рахман показан на примере стихотворения. Восприятие реальной жизни в адаптации художественной интерпретации к изображаемому художественному пространству доказывается еще большее значение света в ярком проявлении реальной жизни в философско-символических аспектах с ее проявлениями в материальной и духовной формах.

**Abstract**

The article examines the features and functions of the use of light in a literary work. It presents the relationship in the fields of science to light. It is said that light is important as a category for philosophy and for the visual arts, and for literature it is a means of expressing an artistic idea. It is based on the fact that light does not penetrate directly into a literary text, no matter what form and function it may be, it is first introduced into the inner world through contemplation of the creator of light and undergoes transformation three times before reaching the recipient (reader). The process of decorating light goes through 4 stages 1. Transformation from a material phenomenon into a spiritual one (or vice versa). 2. Entering into a state (form) corresponding to a creative idea. 3. Setting the task when expressing a creative idea. 4.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

*Enumeration and interpretation in the form in which they occupy a position in the work of art. Although the natural properties of light are reflected in fiction as turning into spiritual properties, during the human meal a description is given of how the primary application of its spiritual properties takes place. The manifestation of the artistic and ideological transformation of light in Uzbek lyrics is characterized by three periods. 1st period poems of Atai, Navoi, Furkat, 2nd period of U. The poems of Nasser, botu, cholpon, the 3rd period of A.Aripov, Sh. Rahman are shown by the example of the poem. The perception of real life in the adaptation of artistic interpretation to the depicted artistic space proves the even greater importance of light in the vivid manifestation of real life in philosophical and symbolic aspects with its manifestations in material and spiritual forms.*

**Kalit so'zlar:** nur, kategoriya, falsafa, adabiy asar, ijodkor, badiiy g'oya, transformatsiya, badiylashish, moddiy nur, ma'naviy nur, ma'naviy-estetik hodisa, falsafiy-ramziy.

**Ключевые слова:** свет, категория, философия, литературное произведение, творец, художественная идея, трансформация, творчество, материальный свет, духовный свет, духовно-эстетическое явление, философско-символическое.

**Key words:** light, category, philosophy, literary work, creator, artistic idea, transformation, creation, material light, spiritual light, spiritual-aesthetic phenomenon, philosophical-symbolic.

## KIRISH

Nur va rang vositasida ijodkorlarning ijtimoiy-ma'naviy muammolarga munosabatlarini ifodalashlarining nazariy asoslarni chuqur va mufassal yoritilishi alohida ahamiyatga ega. Nurning badiiy adabiyotda ifodalanishining nazariy asoslari o'zbek adabiyotshunosligida fundamental tarzda tadqiq etilmagan. Shuningdek, she'riyatdagi rang qo'llanishi haqida so'nggi yillarda ba'zi maqola va tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ularda rangning badiiy adabiyotdagi qo'llanishi omillari, ijodiy konseptni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati tahlili, shuningdek, nasriy asarlardagi ifodalanishi fundamental tarzda maxsus o'rganilmagan edi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida, xususan lirikadagi nur ifodalanishining nazariy masalalalarini tadqiq qilish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridandir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy asarlardagi nuring qo'llanishiga oid bir qancha tadqiqotlar yaratilgan. Nur ko'rinishi ahamiyati masalasi qadimgi yunon falsafasida (masalan, Aristotel tomonidan) [1. – 369-451.] ham ko'tarilgan edi va hozirga qadar bir qator fanlarda (biologiya, tibbiyot, madaniyatshunoslik, psixologiya, etnologiya, tilshunoslik kabilarda) dolzarbligicha qolmoqda.[2-7]

I.V.Gyotening «Xromatika» asarida nuring rang bilan inson psixologiyasiga ta'siri borasidagi kuzatishlari jamlangan.[8. – 125, 133, 330.] Nurning optik xususiyatlari soha mutaxassislari tadqiqotlarida batafsil tadqiq etilgan.[9-11] Ko'pgina ijtimoiy fanlarda nur soya bilan birgalikda o'ziga xos diada sifatida talqin etiladi. [12-16] Bu masalaga bag'ishlangan filologik tadqiqotlardan tilshunoslikda T.V.Grigorevaning [17] rus tilidagi «nur» va «soya» konseptlarining semantik talqini masalasiga bag'ishlangan ishi e'tiborga molik. Shuningdek, rus adabiyotshunosligida I.M.Merkulov, T.Yu.Zimina-Dirda [18,19]larning monografik tadqiqotlari ahamiyatli. Nurning rang bilan o'zaro munosabati masalasiga o'ziga xos yondashuv falsafada P.Teyar de Sharden, tilshunoslikda Yu.A.Kartashova va Ye.B.Mishenkina, san'atshunoslikda Y.M.Bichkova, adabiyotshunoslikda esa S.A.Rodina, U.A.Yushkina tomonidan monografik tadqiq etilgan.[20-25]

Nur va rang mohiyatiga oid ko'plab faylasuflarning mulohazalari mavjud. Nur absolyut va "hissiy"dir. "Hissiy sifatida nur barcha ranglar mavjudligining asosi bo'ladi." [26. – 69]

Avtraliyalik tadqiqotchi A. Xanzen-Lyove yorug'lik (nur) xususiyatiga ko'ra u a'zolik ierarxik yorug'lik kategoriyasini topdi[27.–816]: kosmogonik ibtidoiy nur ("yaratuvchi nur"); yerdagi nur ("yaratilgan nur"); psixik-pnevmatik nur (tashuvchilar "ruh").

Shuningdek, kichik nur ("tellurik nur") va barcha turdag'i ruhiy (ma'rifiy) nurni keltiradi.

Aslida tabiiy jihatlariga asoslanib yuzaga kelgan (ma'naviy) nur tarixiy hodisa bo'lib, unga munosabat turli davrlarda turli hodisalarni ifodalab kelgan.

Ma'lum bo'ladiki, nur falsafa va tasviriy san'atning mavjud bo'lishining kategoriyalaridan sanaladi. So'z san'ati – adabiyotda esa u muhim kategorial xususiyatga ega bo'lmay, badiiy g'oyani ifodalash vositasidir. Chunki nur badiiy adabiyotda dunyodagi o'zgarishlar, rivojlanish, bog'liklarning umumiy jihatlarini inkishof etilishining badiiy talqinlanishida asosiy jihat, birlamchi munosabat masalalariga har doim ham yechim topib berolmaydi. Shuning uchun u jarayonlarni

ifodalashda muhim tushuncha darajasida motiv, obraz, timsol ko'rinishlarda badiiy g'oyani ochib beruvchi vazifasida keladi. Badiiy adabiyotdagi nur barcha madaniy qatlamlardagi talqinlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Adabiy asarda nuring qo'llanishini ikki omili muhim o'rinn tutadi. Nur bilan bog'liq qadimgi yunon falsafiy qarashlarda nur oliy manbadan chiqib yorug'likni yuzaga keltirishi, nur mo'jizaviy qudrat sifatida tana va ongga taft berishi, yorug'lik faqatgina ko'rishga xizmat qilish keltiriladi.[28. – 64-72] "Yorug'likning o'zi jismonan emas, u aql va g'oya (eydos)dir." (Platon) [28. – 102]. Keyinchalik bunday munosabat "xudo dunyoga yorug'lik shaklida" [29. – 226], shuningdek, payg'ambarlar nur manbai sifatida keltirishlar diniy-falsafiy qarashlarda rivojlantirilganini kuzatish mumkin.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Nur qanday shakl va vazifada bo'lmasin badiiy matnga to'g'ridan-to'g'ri kirib kelmaydi, albatta. Dastlab ijodkor nurni tafakkuri orqali ichki olamiga kiritadi. Bunda nur individual tafakkur prizmasidan o'tadi. Shunga ko'ra ijodkorning nuring qanday shakl, ko'rinishini qabul qila olish me'yordan kelib chiqib uning ijodiy olamiga o'tadi. Ya'ni tashqi olam bilan tafakkur to'qnashuvi sodir bo'ladi. Muallif qalb prizmasidan o'tgan shakllari matnga ko'chiriladi. Demak, nur qabul qiluvchi(o'quvchi)ga yetib borgunga qadar esa uch bor transformatsiyaga uchraydi:

1) ijodkorni nurni istaganidek qabul qilishida (bunda ijodkor nurni o'zi istagan shakl (ko'rinish)ga solib qabul qilib oladi, ya'ni istagidagi – asarning talab, ehtiyojiga mos ko'rinishga keltiradi);

2) ijodkor tomonidan nur badiiy asarga xom ashyo yoxud ingredient sifatida uning o'zligi bilan uyg'ulashish jarayonida;

3) ijodiy mahsulot sifatida qabul qiluvchining ehtiyojlariga asoslangan kompensatorlik holatdagi hissiy bilim uyg'unlashuvi jarayonida (o'quvchi nur ko'rinishini o'zi xohlagan shaklda tasavvur etishida).

Nuring badiylashish jarayoni 4 bosqichni bosib o'tadi:

1. Moddiy hodisadan ma'naviy hodisaga aylanishi (yoki aksincha).
2. Ijodiy konsepsiya mos holat(shakl)ga kirishi.
3. Ijodiy konsepsiyanı ifodalashda vazifa yuklatilishi.
4. Badiiy asarda mavqe egallashi.

Demak, birinchi bosqichda nur moddiy – tabiiy hodisadan idrokdag'i ma'naviy hodisaga aylanishi yuz berib, badiiy-estetik ahamiyati asoslanadi.

Ikkinci bosqichda ijodkor tomonidan nuring ijodiy konsepsiya mos samoviy (quyosh, oy, yulduz), tellurik (chaqmoq, yog'du, yong'in) yoki yaratma (chiroq, sham, fonus) shakli tanlab olinadi.

Uchinchi bosqichda tanlab olingan nur manbasi ijodiy konseptni ifodalashda badiiy vositalardan birining vazifasini bajaradi.

To'rtinchi bosqichda badiiy asarda biror badiiy mavqega ega bo'ladi. Ya'ni u motiv, ramz, timsol, obraz, detallardan biriga aylanadi.

Muhim bosqich ijodiy mahsul ko'rinishda transformatsiyalangan nuring qabul qiluvchi (o'quvchi) tafakkur olami sferasiga kirib borishidir. Tabiiyki, ionosfera qatlamiciga o'xshab nuring faqatgina o'quvchi ehtiyojiga ko'ra ma'lum ko'rinishlari o'tadi (qabul qilinadi). O'tib ketgan o'quvchiga noma'lum bo'lgan ko'rinishlari ham hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Chunki o'quvchining ichki olami uning tafakkuridagi nuring darajasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun tashqaridan kirib kelayotgan hissiy va ma'naviy ma'lumotlar qay darajada tafakkurida yoritilishiga "reaksiya" bildiriladi.

Nuring badiiy ijodda o'zlashtirilishi quyidagicha kechadi:

**moddiy nur ==> idrok ==> ma'naviy nur ==> tushuncha ==> badiiy vosita ==> ijodiy munosabat.**

Badiiy adabiyotda nur qo'llanishini A.Xanzen-Lyove qarashlariga asoslangan holda [27. – 816] quyidagicha tavsiflash mumkin:1. Koinot nuri. 2. Sun'iy nur. 3. Ruhiy (llohiy) nur. 4. Tellurik (yerda hosil bo'ladigan) nur.


Bunda: 1.Koinot nuri koinot jismlari quyosh, oy, yulduzlardan tarqaladigan nur. Ular ichida asosiysi quyoshdir. 2.Sun'iy nur insoniyat aql-zakovatidan yaratilgan nur manbalari: sham, "lampa"

## ADABIYOTSHUNOSLIK

singarilar. 3. Ruhiy (ilohiy) nur ko'zga ko'rinishmas, tafakkur va ruhiy anglanadigan nur. 4. Tellurik nur – yer yuzida tabiiy hosil bo'ladigan nurlanish, yog'dulanish hosilasi.


Nurning tasviriy san'at va adabiyotdagi funsiyasi kategorial jihatdan farqlanadi. Tasviriy san'atda nur kategoriya sanalsa, so'z san'ati – adabiyotda u badiiy g'oyaning yordamchi ifoda vositasidir. Ya'ni, nur tasviriy san'at asarini bevosita yuzaga chiqaruvchi birlamchi omildir. Nurning rangga ta'sir etish darajasidan tasvirlar mavqe, maqomlari namoyon bo'ladi. (2-rasm)

**Nurning shoir ijodiy konseptini badiiy matnda aks ettirishi** (1-rasm)



Tasviriy san'atda nuring badiiy ifodasi.


(2-rasm.)



Adabiyotda nur sohaning muhim muammolarini hal qilib bera oladigan kategoriya darajasida kelmaydi. Chunki, kategorial darajada badiiy asarning badiiy-g'oyaviy strukturasiga salmoqli ta'sir qila olmaydi, ammo ijodiy konseptni yuzaga chiqaruvchi muhil omillardan biri bo'lib keladi. Adabiy asar nuring ishtirokisiz ham ma'no-mohiyat kasb eta oladi. Lirik asar tarkibida kelgan nur ijodkorning g'oyaviy talabidan kelib chiqib yuqoridagicha obraz, timsol va motiv shakllariga kira oladi. (3-rasm.)

**Adabiy asarda nuring badiiy ifodasi.**

(3-rasm.)



Bunda u ma'lum bir ko'rinishga asoslangan yaxlit obraz yoki timsol bo'lishi barobarida barcha jihatlari aralash, uyg'unlashib kelishi ham kuzatiladi. Bu masalada aynan qaysidir bir ko'rinishni yoki shaklni badiiy matndan ajratib olib tadqiq qilish orqali shoir ijodiy konseptini to'g'ri baholab bo'lmaydi.

Demak, nur badiiy adabiyotda uning mavjudlik ahamiyatini o'zida izohlab berolmagani bois falsafa hamda tasviriy san'atdagi singari kategoriya darajasida yuzaga chiqolmaydi. Nurning falsafadagi mifologik hamda estetik kategoriyalari badiiy so'z san'ati uchun badiiy g'oya ifodasida yordamchi vosita darajasida qoladi.

Nurning tabiiy xususiyatlari ma'naviy hususiyatlarga ko'chgani holda badiiy adabiyotda aks etgan bo'lsa-da, insoniyat tamadduni davomida uning ma'naviy xususiyatlarining ustuvor qo'llanishi yuz berdi. Tabiiy nur manbai ma'naviy nur manbai ta'sirida mavjudligi iddoa qilina boshladi. Tabiiy nur funksiyalari to'laqonli ma'naviy nur manbaini xarakterlovchi jihat sifatida ko'chib o'tgani holda tabiiy nur manbalari mavjudligini ta'minlovchi omil sifatidagi talqinka uchradi. Bu Yaratguvchining Oliy sifati tarzidagi e'tirofda aks etib, ma'naviy nur manbai birlamchi ahamiyat kasb etdi. Nurning badiiy asardagi badiiy-estetik ifoda qamrovi ijtimoiy-ma'haviy hayot takomili bilan bog'liq ravishda murakkablasha bordi. (5-rasm.)

O'zbek adabiyoti misolida bu hodisani kuzatsak.

O'zbek lirkasida nuring badiiy-g'oyaviy transformatsiyasi 3 davrda namoyon bo'ldi.

1-davr. Moddiy nurga ma'anaviy nuring dominant ta'sir ko'rsatuvchi bo'lib shakllanishi. Nurning bunday shaklda qo'llanish ustuvorligi asosan mumtoz adabiyotda XIX asr oxirlarigacha davom etdi. Nur ma'naviy hodisa sifatida moddiy nuring asosi deb talqinlandi.

2-davr. Moddiylikka asoslangan ma'naviy hodisa sifatida. Bunda nur lirk qahramon intilgan, u orzu qilgan tabiiy massa sifatida shakllandi. Jarayon asosan XX asr boshlarida sodir bo'ldi.

3-bosqich. Nuring moddiy va ma'naviy jihatlarining mutanosib uyg'un shakllanishi. Dastlab mustaqilligimizdan avvalroq boshlangan bu jarayon mustaqillikka erishilgandan keyin milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy-estetik hodisa sifatida shakllanib kelmoqda.

1-davrga oid. Jamiyatdagi diniy-e'tiqodiy qarashlar davr she'riyatida dominantligi bois nur asosan ruhoniy-ma'naviy ehtiyojdan kelib chiqib qo'llandi. Shuning uchun tabiiy manba xususiyatlariga asoslangan ma'naviy manba funksiyalari faollashdi. O'zbek mumtoz she'riyatida nuring bevosita va bilvosita shakli kuzatilib, ular quyidagilarni o'zlarida aks ettirdi:

**Bilvosita (ma'naviy manba sifatida):** Alloh; adolat, saodat.

**Bevosita (tabiiy manba sifatida):** Quyosh, oy, yulduz, sham, olov.

Avvalo nur timsolida Yaratguvchi – Haq talqinlandi:

*Yuzungda obidi asnom ko'rsa Haq nurin,*

*Qilib suxud, degay yo sanam yo samadi:*

(Atoyi. 68a)

Nuring o'zbek mumtoz she'riyatida bilvosita qo'llanining yana bir faolligi nur timsolida Muhammad S.A.V.ning madh etilishidir.

*Ey mushari husningg'a mening nuqtasi oyat,*

*Islom eliga bo'ldi yuzung nuri hidoyat.*

(Atoyi. 8b)

Ko'rindiki, lirk mohiyatini belgilovchi xususiyat "ul zoti mukarramning yuzlari "nuri hidoyat", ya'ni, insonlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi nur sifatida ulug'lanadi.[30. – 11].

Bilvosita nur ishtiroki ustuvorligi Allohni, uning saodatini Yor timsolida ifodalasa, bevosita nur ishtiroki esa Alloh timsollahgan quyosh, oy, yulduz kabi obrazlarda ifodasini topganligi ko'rindi.

*Quyosh aksimudur hayvon suyida yo ko'runmishdur*

*Ravonoso may ichra soqin gulchehra ruxsori.*

(Navoiy. "Kamand uchiga yetkumas") [31. – 99]

Tasavvufshunos olim N.Komilov ta'kidlaganidek, "birlamchi qudrat porlashidan taralgan nur bu ko'zguda aks etadi, ya'ni moddiy dunyodagi jamiki mavjudot va maxluqot — zarradan quyoshgacha, yero ko'k, sobutu sayyora shu nur bilan yoritiladi, shu nur tufayli harakatlanadi, muayyan uyg'unlik ichra rivojlanib turadi." [32. – 10]

Nurga bunday munosabat shakl ustuvorligi XX asr ostonasidagi davr she'riyatiga qadar davom etgan.

*Nuri ruxsoringdin islom ahli ko'nglida safo,*

*Tobi zulfingdin gireh kufr elining zunnorida. (Furqat) [33. – 23]*

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Demak, nur o'zbek mumtoz she'riyatida tasavvufiy qarashlar asosida ilohiylikni ifodaladi.

2-davrga oid. Zamnaviy o'zbek lirikasida nur koinotdagi manbalari quyosh, oy, yulduzlardan, ilohiy (ruhiy) manbalari Alloh, Payg'ambardan, sun'iy manbalari mash'al, sham, chiroq, lampalardan, tellurik manbalari: yerdagi nurlanish, chaqnash hodisalaridan hosila sifatida o'z badiiy talqiniga ega. Ma'naviy olami zamon zayli bilan boyib borayotgan zamnaviy o'zbek lirikasida esa nur ijtimoiy-siyosiy hayot fonida shoirning ma'naviy-estetik idealini mujassamlashtiruvchi sifatida namoyon bo'la boshladi. Ya'ni ifoda mazmuni real hayotga in'ikos tarzda tasvirlanayotgan badiiy makonga badiiy talqin moslashib, ilohiy olam vositachisidan real hayotni chuqur falsafiy-ramziy ifodalovchiga aylandi.

Nurning xolis namoyon bo'lism holatlari ham mavjud: u shakl-shamoyilsiz obraz, neon massa, ohanrabo go'zallik, ojiz yoki qudratli hamda najotkor oqim shaklida kelishi kuzatiladi.

Masalan, nur qandaydir go'zal jonli mavjudod sifatida tasvirlanadi:

*Yur, tog'larga chiqaylik.*

*Mayli, yur!*

*Eh... qandayin chiroylik*

*Oppoq nur... ( U.Nosir. "Yur, tog'larga chiqaylik..." ) [34. – 160]*

Nur lirik qahramonning maqsad – intilish konsensiyasi yuzaga keltiruvchi asar motivini tashkillaydi. Mantiqiy markazni yuzaga keltiruvchi omilga aylanganligi "eh", "qandayin chiroylik" tarzida badiiy tasvirlarda o'z tasdig'ini topadi va shu orqali lirik kontekstdagi ahamiyatini urg'ulaydi.

Ma'lumki, nurga intilish jonzodning instinctiv fiziologik ehtiyoji bo'lgani kabi shoir ham nurga intilish falsafasi yo'g'rilgan real hayotni badiiy talqinlaydi va shu asnoda o'z badiiy olamini yaratadi. "Har bir shoir bu olamga o'z qarashlari, o'zining fikrlari, dunyoni badiiy ko'rishi, idrok etishi va tuyg'ulari ifodasiga ega bo'lgan muhim shaxsdir. Har bir katta shoirning ijodi o'ziga xos, original, betakror." [35. – 74]

Ma'lum bo'ladiki, nur o'zining fizik hamda ma'naviy ahamiyati tufayli tabiiy va to'laqonli ravishda poetik g'oya manbai sifatida "badiiy ijod impulsi [35. – 80]" ni vujudga keltiradi. [37. – 3] Adabiy asarda ham nur tabiiy xususiyatiga xos ravishda badiiy makonning ko'rinishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni optika sohasidagi nur taralishi bilan barcha jismlarning ko'zga ko'rinish holatiga qiyoslash mumkin. Mohiyatini chuqur tahlil qilgan holda e'tibor qaratilsa, lirik asarda ham shoir ijodiy g'oyasini ifodalovchi obrazlar o'z-o'zidan yorug'likni – nuring bevosita yoki bilvosita mavjud bo'lishi zaruriyatini taqazo etadi. [38. – 12] Ammo kategorial darajada emas.

Lirik qahramon tog'larga chiqib ko'rishga intiqqan nur – "o'z chiroyi"ga egaligi bilan obrazlashtiriladi. Unda yerning emas, nurdagi samoviy sehrli tarovat mujassamligi lirik qahramon hayajonini jo'shtiradi. Nur ham obraz sifatida shoir ko'rmoqchi bo'lgan erkni anglatadi, ham shu o'rinda erkni timsollaydi.

Nur hayot faoliyatini ta'minlovchi koinotdan keluvchi qandaydir neon massa, sifatida ifodalanishi ijodkor tomonidan nuring ongga sig'mas hodisa ekanligi talqinlandi: *O, u qanday davomdor! / Nur bilan to'lgan butun. / Ko'nglimda yashnar bahor... / Nur bilan to'lgan butun. (Usmon Nosir. "Bog'im") [34. – 174]*

Misolda keltirilganidek, zamnaviy o'zbek lirikasi shakllanishining dastlabki davridan nuring moddiy xususiyatlari birlamchi ahamiyat kasb etgani holda badiiy talqin markaziga tortildi. Bu nuring o'zbek adabiyotida, xususan lirikasida yangi talqin, yangi munosabatda qo'llanishining muhim bosqichi bo'lib shakllandi. Chunki ma'naviy muammolar nuring tabiiy (moddiy) jihatlari vositasida yoritildi. Ma'naviy nur birlamchi vazifada emas, parallelikda qo'llanib, moddiy nur funksiyasini urg'ulashga xizmat qildirildi. Nuring har ikki ko'rinishining uyg'unlashuvi ham yuz berdi.

*Qachongacha qorong'ular aro qolar bo'g'ilib? / Yetar endi, yorug'likdan mahrum etib bizlarni, / Shuncha choqlar nur yo'lini to'sibgina turdingiz. / Parda bo'lib nur sochguvchi yulduzlarning yuziga / Ko'nglimizni kuz chog'ining yaprog'idek qildingiz. (Botu. "Yetar endi") [39. – 33]*

Aslida yuqorida keltirilgan har ikki she'riyning lirik qahramoni ham tabiiy nurga intilishi manzarasi keltirilgan bo'lsa-da, jarayonlar ikki xilda talqin etiladi. Usmon Nosir she'ridagi lirik qahramon tomonidan ifodalangan nur samoviy mo'jiza sifatida tasvirlansa, Botuning lirik qahramoni tabiiy hodisa fonida ma'naviy jarayonlarni parallel ifodalaydi.

Tarixiy hodisa nuqtai nazaridan qaralsa, Usmon Nosirning lirik qahramoni ko'rgan va kuylayotgan nuri Botuning "nuri"dan farqlanadi. Chunki birinchi she'rda "toqqa chiqib oppoq nurni ko'rish"ga intiqayotgan sho'rolar tuzumidan naridagi chin haqiqatni izlayotgan lirik qahramon timsoli tasvirlangan bo'lsa, ikkinchisida o'sha davr – XX asr boshidagi o'lkamizda ayollarning paranji tashlash "Hujum" harakati bilan motivatsiyalangan. Bir davrning o'zida ikki shoir tomonidan nurga ikki xil munosabat yuzaga chiqqan. Usmon Nosirning sho'rolar siyosatidan naridan nur izlashga chog'langan lirik qahramoni uchun nur shaxs o'zligini anglatuvchi vosita. Botuning lirik qahramoni esa sho'rolar vositasida nurga erishajagini ta'kidlashga urindi. Go'yoki ijtimoiy-ma'naviy erkinlik (sho'rolar in'om etayotgandek) nurda timsollandi.

3-davrga oid. Nurning keyingi badiiy-estetik transformatsiyasi XX asr oxirlari o'zbek lirikasida yuz berdi. Nur buyuk qudrat manbai sifatida e'tirof etildi. Bu davr ma'naviy hayotidagi badiiy-estetik tafakkur o'zgarishlari bilan bog'liq hodisa bo'ldi. *Do'stlar, nur vasliga tashlaylik nigoh. / Shu buyuk oftobning mukofotini / E'zozlab qo'yaylik aytib shukrona.* (A.Orarov. "Bahir").[40. – 202]

Bu yerda zohiriy ko'rinish ilohiy – botiniy tasvirini topib, nur chuqur diniy falsafa mujassamlagan. She'rda badiiy konsepsiya asosi sifatidagi nur moddiy va ma'naviy xususiyatlari birikib, yagona rakursda ko'zga tashlanadi.

She'rining davomida nuring najotkorlik sifati ulug'langan:

*Sen kelding, uyg'ondi yana sho'x olqish,*

*Yig'lagan ko'zlarga tushgan kabi nur.* [40. – 202]

Koinotdagi tabiiy-astronomik jarayon shoir tomonidan nur vositasida obrazlashtirilib, badiiy matnga olib kirilgan. G'oyaviy-estetik masalaga yechim sifatida talqin etilgan:

*Koinotning sovuq qa'ridan*

*kelar bizdan xabar olgani.*

*kelar cheksiz bo'shliqda kezgan*

*so'qir yerda mangu qolgani.* [41. – 163]


Nuring xususiyati ko'chimga aylangan:

*Har gal o'zga sayyoralardan*

*bizga yorug' salomlar aytar.* [41. – 163]

Shu nuqtada nuring shakliy transformatsiyasi kuzatiladi, ya'ni *salomning yorug' bo'llishi* bilan. Odadagi lirikaga xos real borliqning tabiiy in'ikosi tasviriga parallel qilib ijtimoiy-ma'naviy borliq tasviri qo'yilgan.

Shu o'rinda nuring hodisa va obraz sifatidagi tabiiy va ruhiy parallel nuqtalardan "gipersakrash"ini kuzatamiz.



Koinot nuri ma'naviy borliqqa olib o'tilgan. Nuring soya bilan qarama-qarshiligi ma'naviy olamdag'i ularni ifodalovchi obrazlar tizimini harakatlantirgan.

*Yoxud ko'rmas rostlikni aslo,*

*Yoxud ko'rmas diyonat, g'urur.*

*Balki shundan mangu qololmas,*

*Balki shundan qaytib yurar nur.* (Sh.Rahmon. "Nur") [41. – 163]

Shoir tomonidan nurga chuqur ramziy metaforik vazifa yuklatilganki, bu bilan ma'naviy tubanlik "nur" vositasida yoritib berilgan. Olamda barcha narsani yoritib, ko'rsatib berish faqatgina nurgagina xos bo'la turib, uning o'zi ham "ko'rishga" qodir bo'lmasligini keltirilishi badiiy makonning qanchalar zulmatga cho'kib ketganligidan dalolatdir.

**XULOSA**

Ma'lum bo'ladiki, tabiiy nur ma'naviy jihatlarni olib berishda birlamchi manba bo'lib xizmat qilgan. Nur ma'naviy olamning o'lchovi, ko'rsatkichi vazifasini bajarib kelgan. Ma'naviy nur ruhiy nur ko'rinishida namoyon bo'lgan. Ruhiy nur – ma'naviy olamni yoritgichi sifatida davr she'riyatida chuqur ijtimoiy-ma'naviy masalaning yechimi sifatida qo'llangan.

Demak, o'zbek mumtoz she'riyatida tasavvufiy qarashlar asosida ilohiylik ifodalangan nur zamonaviy o'zbek she'riyatida ijtimoiy-siyosiy hayot fonida shoirning ma'naviy-estetik idealini mujassamtiruvchi rolida namoyon bo'la boshlagan. Real hayotga in'ikos tasvirlanayotgan badiiy makonga badiiy talqinning moslashishida nurning moddiy va ma'naviy shakldagi ko'rinishlari bilan real hayotni falsafiy-ramziy jihatlarda yorqinroq namoyon qilishdagi ahamiyati yanada oshdi. Nur yaratuvchining sifatlarinigina emas, real vogelik qurshovidagi lirik qahramonning intilishlarini yoritib berishda ijodiy konsepsianing bosh omili, motiv, obraz, timsol ko'rinishlarda konkret shakllandi, zohiriyl va botiniy olam o'rtasida vositachilik roli yaqqollashdi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Аристотель. О душе // Аристотель. Сочинения в 4-х томах. – М.: Мысль, 1976. Т.1. - С. 369-451.
2. Арнхейм Р. Искусство и визуальное восприятие. – М.: Прогресс, 1974.;
3. История красоты. /под ред. Умберто Эко. –М.: Слово, 2005;
4. Трубецкой Е. Два мира в древнерусской иконописи // Философия русского религиозного искусства XVI - XX вв. Антология. –М.: Прогресс, 1993;
5. Кассирер Эрнст. Философия символических форм. Том 2. Мифологическое мышление. М.; СПб.: Университетская книга, 2002;
6. Флоренский П.А. Сочинения в 4 т. Т. 1..– М.: Мысль, 1994;
7. Раушенбах Б.В. Геометрия картины и зрительное восприятие. - М.: Интерпракс, 2001.
8. Гёте, И. В. К учению о цвете (Хроматика)/ И. В. Гёте // Избранные сочинения по естествознанию. - М.-Д.: АН , 1957. - С. 125, 133, 330.
9. Луизов А.В. Цвет и свет. - Л.: Энергоатомиздат, 1989. - 256 с.;
10. Мезенцев В. Лучами света. - М.:1949. - 110 с.;
11. Миннарт М. Свет и цвет в природе. - Изд-е 2-ое.- М.: Наука, 1969.-344 с.
12. Шахнович М.И. Первобытная мифология и философия. - Л.: Наука, 1971.- 239 с. С-141;
13. Афанасьев А.Н. Живая юда и вещее слово. – М.:1988. - 510 с.;
14. Флоренский П.А. Т 1.: Столп и утверждение истины. --Т. 2.: У водоразделов мысли. - М.: Правда, 1990. - Т.2 - С. 446;
15. Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. - М., 2000. – С.480.;
16. Соловьев В.С. Чтения о Богочеловечестве. Красота в природе // Владимир Соловьев. Чтения о Богочеловечестве. Статьи. Стихотворения и поэма. - СПб.: Художественная литература, Санкт-Петербургское отделение, 1994. – С. 526.
17. Григорьева Т.В. Семантическая интерпретация концептов «Свет» и «Тьма» в русском языке. Автореферат дис... канд. филол. наук, - Уфа, 2004.
18. Меркулов И.М. Поэтика света и тени в лирике К.Д. Бальмонта. Диссертация на соиск. науч. степ. кан. филол. наук. – М.: 2011;
19. Зимина-Дырда Т.Ю. Поэтика цвета и света в прозе И.А. Бунина, П.А. Нилуса и А.М. Фёдорова. Автореферат дис...канд. филол. наук, – М.: 2011.
20. Тейар де Шарден П. Феномен человека. – М.: 1965. - С. 159;
21. Карташова Ю.А.Функционально-семантическое цвето-световое поле в лирике Игоря Северянина. Автореферат дис... канд. филол. наук. – Бийск, 2004;
22. Мишенькина Е.В. Национально-специфическая характеристика концепта «свет-цвет» в русской и английской лингвокультурной картине мира. Автореферат дис... канд. филол. наук. – Ярославль, 2006;
23. Бичкова Е.М. Символика и образы цвета и света в сакральном искусстве Москвы XIV - первой половины XVI вв. Автореферат дис...канд. филол. наук. – М.: 2007;
24. Родина С.А. Свет в художественно-колоративной системе лирики С.А. Есенина, 1919 - 1925 гг. Автореферат дис...канд. филол. наук. – М.: 2001;
25. Юшкина У.А. Поэтика света и цвета в прозе М.А.Булгакова. дис... канд. филол. наук. – Волгоград, 2008.
26. Кузанский Н. Т.2. – М.: 1980. – С. 169.
27. Ханзен-Лёве А. Русский символизм. Система поэтических мотивов. Мифопоэтический символизм. Космическая символика / Пер. с нем. М. Ю. Некрасова — СПб., Академический проект, 2003 — 816 с.
28. История красоты./ под ред. Умберто Эко. – М.: Слово, 2005. – С. 64-72.
29. Трубецкой Е.Н. Два мира в древнерусской иконописи // Трубецкой Е.Н. Три очерка о русской иконе. – М.: Лепта, 2000. – С. 226 - 227.
30. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. –Т.: Фан, 1995. – Б. 11.
31. Алишер Навоий. Фазаллар. Шарҳлар. – Т.: Камалак, 1991. – Б. 99.
32. Комилов Н. Тимсоллар тимсоли. / Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар. – Б. 10. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

33. Фурқат шеъриятидан. – Т.: Ўзбекистон, 1980. – Б. 23.
34. Усмон Носир. Танланган асарлар. Икки томлик. Биринчи том. Шеърлар. –Т.: 1969. – Б. 160.
35. Мостепаненко Е.И. Свет в природе как источник художественного творчества // Художественное творчество. Вопросы комплексного изучения. Человек - Природа - Искусство. – Л.: Наука, 1986. – С. 74.
36. Мостепаненко Е.И.– С. 80.
37. Абдурахмонов А.А. Перспективы развития современной филологии Материалы VIII международной научной конференции г. Санкт-Петербург 1-2 октября 2013 года. – С. 3.
38. Абдурахмонов А.А. Ўзбек шеъриятида нур, ранг ва руҳият тасвири поэтикаси (анъана ва новаторлик аспектида) Автореферат. - Фарғона, 2018. –Б. 12-13.
39. Боту. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 33.
40. Орипов А. Сайланма. Шеърлар ва драматик достон. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 202.
41. Шавкат Раҳмон. Сайланма. –Т.: Шарқ, 1996. – Б. 163.